

## O'ZBEKISTON MUZEYLARIDA MENEJMENT TAMOYILLARINI JORIY ETISH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI



**Saodat Anvarovna Ruziyeva**

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn  
instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-03>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston muzeylarida zamonaviy menejment tamoyillarini joriy etish jarayoni tahlil qilingan. Muallif mamlakatdagi muzeylar faoliyatida amalga oshirilgan institusional islohotlar, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, marketing strategiyalarini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni atroflicha ko'rib chiqqan. Maqolada menejment tamoyillarining milliy madaniy merosni samarali saqlash va xalqaro miqyosda targ'ib qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, muzeylar faoliyatining istiqbolli yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish, auditoriyani kengaytirish, homiylik munosabatlarini kuchaytirish va innovatsion xizmatlarni yo'lga qo'yish masalalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston muzeylarining raqobatbardoshligini oshirish va madaniy rivojlanish drayveri sifatidagi o'rmini mustahkamlash imkoniyatlarini namoyon etadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston muzeylari, muzey menejmenti, milliy madaniy meros, raqamli transformatsiya, muzey marketingi, auditoriya bilan aloqa, innovatsion xizmatlar, muzey infratuzilmasi, muzey siyosati.

**Аннотация:** В данной статье проанализирован процесс внедрения современных принципов менеджмента в музеях Узбекистана. Автор всесторонне рассматривает институциональные реформы, осуществляемые в деятельности музеев страны, применение цифровых технологий, развитие маркетинговых стратегий и меры по повышению кадрового потенциала. В статье освещается значение принципов менеджмента для эффективного сохранения национального культурного наследия и его продвижения на международном уровне. Также научно обоснован анализ перспективных направлений музейной деятельности, таких как цифровизация, расширение аудитории, укрепление спонсорских отношений и внедрение инновационных услуг. Результаты исследования демонстрируют возможности повышения конкурентоспособности музеев Узбекистана и укрепления их роли как драйвера культурного развития.

**Ключевые слова:** Музеи Узбекистана, музейный менеджмент, национальное культурное наследие, цифровая трансформация, музейный маркетинг, взаимодействие с аудиторией, инновационные услуги, музейная инфраструктура, музейная политика.

**Abstract:** This article analyzes the process of implementing modern management principles in the museums of Uzbekistan. The author thoroughly examines the institutional reforms carried out in the country's museum activities, the application of digital technologies, the development of marketing strategies, and the measures aimed at enhancing staff capacity. The article highlights the importance of management principles in effectively preserving national cultural heritage and promoting it on an international scale. It also provides a scientific analysis of key prospects for museum activities, such as digitization, audience expansion, strengthening sponsorship relations, and introducing innovative services. The research findings reveal opportunities to enhance the competitiveness of Uzbekistan's museums and strengthen their role as drivers of cultural development.

**Keywords:** Museums of Uzbekistan, museum management, national cultural heritage, digital transformation, museum marketing, audience engagement, innovative services, museum infrastructure, museum policy.

Muzeylar — millat tarixini, madaniyatini, an'analarini va ma'naviy qadriyatlarini asrabavaylash, ularni ilmiy jihatdan o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishning muhim institutlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda muzeylar faqatgina eksponatlarni saqlash va namoyish qilish vazifasini emas, balki ta'limiylar, ilmiy-metodik, madaniy-ma'rifiy va targ'ibot faoliyatini ham amalga oshirish orqali jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shamoqda. Xususan, globalizatsiya va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida muzeylarning faoliyatida samaradorlikni ta'minlash uchun zamonaviy menejment tamoyillarini tatbiq etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda istiqlol yillarida milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uning jahon hamjamatiyatida munosib o'rinnegallashi uchun keng ko'lamlislohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Prezident tashabbuslari bilan madaniy sohani, xususan, muzeylarni modernizatsiya qilish bo'yicha maxsus dasturlar qabul qilindi. Davlat muzeylarining infratuzilmasi bosqichma-bosqich yangilanmoqda, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, muzeylarda virtual ekskursiyalar, raqamli arxivlar, elektron kataloglar yaratish orqali muzey faoliyatining raqamli transformatsiyasi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, muzeylar samarali faoliyat yuritishi uchun faqat moddiy-texnik bazani yangilash yetarli emas. Zero, ularning rivojlanishini ta'minlash uchun ilg'or menejment tamoyillarini joriy etish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Zamonaviy muzey menejmenti konsepsiysi strategik boshqaruv, resurslarni samarali taqsimlash, auditoriya bilan interaktiv aloqa o'rnatish, xizmatlar sifatini oshirish, moliyaviy mustaqillikni ta'minlash va marketing faoliyatini samarali yo'lga qo'yishni nazarda tutadi.

Menejment tamoyillari — bu tashkilotning barqaror va maqsadli faoliyatini ta'minlaydigan qoidalar va amaliy yondashuvlar majmuasidir. O'zbekiston muzeylari kontekstida menejment tamoyillari, avvalo, muzey faoliyatini strategik rejalshtirish, resurslardan maqsadli foydalanish, foydalanuvchi talablarini o'rganish va qondirish, xizmatlar sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va keng auditoriyani jalb etishga qaratilgan vazifalarni qamrab oladi.

O'zbekiston muzeylarida menejment tamoyillarini joriy etish o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yamoqda:

- **Ekspozitsiyalarni yangilash va modernizatsiya qilish:** Mazkur yo'nalishda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Amir Temur muzeyi va Toshkent muzeyi misolida an'anaviy ekspozitsiya modellaridan interaktiv, raqamlashtirilgan va muloqotga asoslangan ekspozitsiya shakllariga o'tishga tayyorgarlik kuzatilmoqda. Bu muzeylarning zamonaviy tashrifchilar — ayniqsa yoshlar — uchun yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qilmoqda.

- **Auditoriyani kengaytirish va faol ijtimoiy aloqalar:** O'zbekiston muzeylarida turli yosh va ijtimoiy guruhlarga mo'ljallangan maxsus ta'limiylar, madaniy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, Respublika bolalar kutubxonasi qoshidagi muzey bolalar uchun maxsus interaktiv ekskursiyalar va ustaxona mashg'ulotlari uyuştirmoqda.

- **Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash:** Davlat qo'llab-quvvatlovi bilan bir qatorda, muzeylar o'z moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish uchun tijorat faoliyati (suvenir mahsulotlari sotuvi, taqdimot va taqdimot xizmatlari, maxsus ekskursiyalar) va grant dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini izlamoqda.

- **Resurslarni oqilona boshqarish va raqamli transformatsiya:** Bugungi kunda O'zbekiston muzeylarida kolleksiyalarni raqamlashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston tarixi davlat muzeyida eksponatlarni raqamli arxivlash va onlayn ko'rgazmalar yaratish yo'lga qo'yilgan.

- **Marketing va muzey brendini shakllantirish:** Muzeylar o'z imijini mustahkamlash uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda, targ'ibot va reklama strategiyalarini takomillashtirmoqda. Turizm agentliklari bilan hamkorlikda maxsus muzey turlari va loyihibar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, menejment tamoyillarini tatbiq etish jarayonida ma'lum qiyinchiliklar ham mavjud. Jumladan, malakali muzey menejerlarini tayyorlash tizimi hali yetarli darajada shakllanmagan, ayrim muzeylarda moliyaviy mustaqillik darajasi past, tashrifchilar talab va istaklarini muntazam o'rganish va tahlil qilish yetarli emas. Shu sababli, muzey sohasida kadrlar malakasini oshirish, ilmiy asoslangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish va xalqaro tajribani chuqur o'rganish talab etiladi.

O'zbekiston muzeylarida menejment tamoyillarini tizimli va maqsadli joriy etish orqali nafaqat milliy madaniy merosni asrab-avaylash, balki mamlakatning madaniy imijini xalqaro maydonda keng targ'ib qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu maqsadda, muzeylar faoliyatini strategik boshqarish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va foydalanuvchi markazli faoliyat modelini rivojlantirish eng ustuvor vazifalardan bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston muzeylarining faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida davlat siyosatida bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi. Mamlakat rahbariyati tashabbusi bilan muzeylarni rivojlantirishning strategik ahamiyat kasb etgan sohalari — boshqaruv tizimi, kadrlar salohiyati, raqamli infratuzilma va innovatsion xizmatlar yo'nalishlarida kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi.

Jumladan, muzey boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish maqsadida muzey xodimlari uchun menejment bo'yicha ixtisoslashgan o'quv seminarlari, treninglar va malaka oshirish dasturlari tashkil etildi. Bu treninglarda muzeylarni strategik boshqarish, moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, auditoriya bilan interaktiv aloqa o'rnatish va muzey marketingi kabi yo'nalishlar asosiy e'tibor markazida bo'ldi. O'quv jarayonlari mahalliy va xalqaro mutaxassislar ishtirotkida o'tkazilib, muzey xodimlariga zamonaviy boshqaruv va kommunikatsiya ko'nikmalari o'rgatildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston davlat muzeylari ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Turkiya kabi davlatlarning yetakchi muzeylari bilan hamkorlikda o'tkazilgan seminarlar, tajriba almashuv dasturlari va stajirovkalar natijasida boshqaruvda zamonaviy yondashuvlar sinovdan o'tkazilmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Amir Temur muzeyi va Islom sivilizatsiyasi markazi kabi yirik muassasalar misolida menejment tamoyillarini joriy etish bo'yicha aniq natijalar kuzatilmoqda. Ushbu muzeylarda:

- **Strategik rejalshtirish** amaliyoti yo'lga qo'yildi: Muzey faoliyatini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilmoqda va har yili ularning bajarilishi tahlil qilinmoqda.
- **Auditoriya tadqiqotlari** olib borilmoqda: Tashrifchilarning yoshi, manfaatlari va talablari asosida maxsus dasturlar va ekspozitsiya konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda.
- **Raqamli marketing vositalaridan** faol foydalanilmoqda: Muzey saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda sahfalar, mobil ilova, onlayn targ'ibot va elektron bilet tizimlari joriy qilinmoqda.

Shuningdek, muzeylarda xizmatlar diversifikatsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu boroda qator yangiliklar joriy etilgan:

- Interaktiv ekspozitsiya maydonlari va multimedia elementlari qo'llanilmoqda;
- Mobil ilovalar orqali virtual ekskursiyalar va multitilli audiogid xizmatlari taklif etilmoqda;
- Onlayn va gibrid ko'rgazmalar tashkil etilmoqda, bu esa nafaqat mahalliy, balki xalqaro auditoriyaga ham muzey eksponatlarini taqdim etish imkoniyatini yaratmoqda.

Islom sivilizatsiyasi markazi misolida aytish mumkinki, bu muassasa nafaqat an'anaviy ko'rgazmalarni, balki zamonaviy ilmiy-tadqiqot, ta'lim va madaniy-ma'rifiy faoliyatni samarali integratsiya qiladigan ilg'or muzey modeli sifatida faoliyat yuritishi rejalshtirilmoqda.

Bundan tashqari, muzeylar moliyaviy barqarorlikka erishish maqsadida grantlar, homiylik shartnomalari va tijorat faoliyatini ham yo'lga qo'ymoqda. Xususan, muzeylarda suvenir do'konlari, maxsus tijorat ekspozitsiyalari va madaniy tadbirlar tashkil etish orqali qo'shimcha daromad manbalari yaratilmoqda.

O‘zbekiston muzeylarida menejment tamoyillarini joriy etish amaliyoti nafaqat ichki tashkilotchilik va moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki milliy madaniy merosni saqlash va dunyo hamjamiyatiga munosib tarzda taqdim etish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Keyingi bosqichda bu jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlash, muzey marketingini rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **O‘zbekiston muzeylarida istiqbolli yo‘nalishlar: raqamli transformatsiyadan innovativ xizmatlarga**

O‘zbekiston muzeylarining barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash uchun kelgusida bir qator ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarni amalga oshirish zarur. Zamonaviy jamiyatning talablari, texnologik taraqqiyot va global tendensiyalar muzey faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Quyida ushbu istiqbolli yo‘nalishlarni ilmiy tahlil etib ko‘rib chiqamiz.

#### **1. Dijital texnologiyalardan foydalanish va raqamlashtirish jarayonlari**

Muzey fondlarini raqamlashtirish zamonaviy muzey faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zbekiston muzeylarida eksponatlarni raqamli formatga o‘tkazish, elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish va onlayn platformalar orqali keng auditoriyaga taqdim etish amaliyoti joriy etila boshladi. Raqamlashtirish muzey eksponatlarini fizik yoki tabiiy yo‘qotish xavfidan muhofaza qilish bilan bir qatorda, ilmiy tadqiqotlar va ta’lim sohasida ham ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Istiqbolda virtual muzeylar yaratish, 3D modellashtirilgan ekspozitsiyalar tayyorlash va onlayn ko‘rgazmalar tashkil etish O‘zbekiston muzeylarining global muzey makonidagi ishtiropi va ta’sir doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, qator muzeylar va Islom sivilizatsiyasi markazi misolida virtual sayohatlar va interaktiv kontent tayyorlash borasida ilk qadamlar qo‘yilyapti.

#### **2. Marketing strategiyalari va auditoriyani kengaytirish**

Hozirgi vaqtida muzey faoliyatining samaradorligi faqat mavjud ekspozitsiyalarga emas, balki samarali marketing va PR faoliyatiga ham bog‘liq. Muzeylar zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqishi, auditoriya segmentatsiyasini amalga oshirishi va maqsadli guruhlarga mo‘ljallangan maxsus dasturlar ishlab chiqishi zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, YouTube) orqali faol targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish, muzey saytlarini mobil versiyada ham ishlatalish imkoniyatini yaratish, elektron axborot byulletenlarini tarqatish muzeyning jamiyat bilan aloqasini mustahkamlaydi. Shuningdek, muzeylarda ixtisoslashtirilgan tadbirlar — masalan, «Muzeydagي tun», «Madaniyat haftaligi», «Bolalar uchun muzey» loyihibarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **3. Homiylik va sheriklik munosabatlari rivojlantirish**

Muzeylarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun davlat byudjetidan tashqari qo‘sishma moliyalashtirish manbalarini izlash zarur. Bu borada xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish katta ahamiyatga ega.

Homiylik shartnomalari, grantlar, sarmoyalalar va ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihibar muzeylarning moliyaviy mustaqilligini oshiribgina qolmay, ularning xizmat sifatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Muzeylar biznes sektor bilan hamkorlikda maxsus loyihibar — masalan, korporativ ko‘rgazmalar, brendlashtirilgan tadbirlar va ta’limiy seminarlar uyushtirishi mumkin.

#### **4. Kasbiy malaka oshirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish**

O‘zbekiston muzeylarida zamonaviy menejment tamoyillarini to‘liq joriy etish uchun malakali kadrlarga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Shu bois, muzey sohasi uchun maxsus menejerlar, marketologlar, raqamlashtirish mutaxassislar va ekskursovodlarni tayyorlash tizimini kuchaytirish talab etiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida «muzey menejmenti», «muzey marketingi», «muzey texnologiyalari» kabi ixtisoslashtirilgan yo‘nalishlarni ochish, xorijiy muzeylar bilan hamkorlikda

stajirovkalar va tajriba almashuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish istiqbolda muhim o‘rin tutadi. Bu nafaqat kadrlar salohiyatini oshiradi, balki muzeylarning raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi.

### **5. Innovatsion xizmatlar va foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish**

Muzeylarga tashrifchilarni jalb qilish uchun innovatsion xizmat turlarini joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda interaktiv platformalar, QR-kod orqali ma‘lumot olish, multimedia ilova va multitilli ekskursiya dasturlari muzeylardagi tajriba va taassurotlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, muzeylarda maxsus ko‘rgazmalar va tajribaviy maydonlar tashkil etish, ko‘zi ojizlar va karlar uchun maxsus ekskursiya dasturlari yaratish, ota-onalar va bolalar uchun moslashtirilgan ta’limiy dasturlarni joriy etish muzeylarning inklyuzivlik darajasini oshiradi va foydalanuvchilar bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston muzeylarida menejment tamoyillarini joriy etish jarayoni so‘nggi yillarda ijobjiy dinamika kasb etmoqda. Amalga oshirilgan islohotlar va joriy etilgan zamonaviy boshqaruv usullari muzeylarning faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda muzeylar nafaqat milliy madaniy merosni saqlash va namoyon qilish, balki uni jahon hamjamiyatiga munosib tarzda taqdim etishning ham samarali mexanizmlariga ega bo‘lib bormoqda.

Menejment tamoyillarini joriy etish muzey faoliyatidagi asosiy ko‘rsatkichlar — tashrifchilar sonining ko‘payishi, ekspozitsiya va ko‘rgazmalarning sifat jihatdan yaxshilanishi, moliyaviy barqarorlikning oshishi va xalqaro hamkorlik aloqalarining kengayishi kabi ijobjiy natijalarga olib keldi. Xususan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Amir Temur muzeyi, Islom sivilizatsiyasi markazi kabi yirik muzey muassasalarida strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya va innovatsion xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bu jarayonning muvaffaqiyatli ekanini tasdiqlamoqda.

Bundan tashqari, muzeylarda auditoriya talablarini o‘rganish va ularga mos ravishda faoliyatni yo‘lga qo‘yish amaliyoti muzeylarning jamoatchilik bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirishga va keng ommaviy targ‘ibot ishlarni samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Har bir muzey uchun foydalanuvchi markazli yondashuvni shakllantirish va tashrifchilar tajribasini yaxshilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida muzeylarning raqobatbardoshlilagini ta’minalash uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish zarur degan fikrdaman:

- raqamli texnologiyalarni yanada chuqur joriy etish, muzey kolleksiyalari va ma‘lumotlarini to‘liq raqamlashtirish orqali ularning ommaviy foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- marketing va PR faoliyatini kuchaytirish, maqsadli auditoriyalar uchun maxsus loyihalar va dasturlar ishlab chiqish;
- muzey xodimlarining kasbiy malakasini muntazam oshirish va zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalarini singdirish;
- xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy muzeylar bilan tajriba almashish va o‘zaro loyihalarda ishtirok etish.

Shu orqali, O‘zbekiston muzeylari nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham o‘z o‘rnini mustahkamlab, madaniy taraqqiyotning muhim drayverlaridan biriga aylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Muzeylar milliy qadriyatlarning saqlovchisi, ilmiy tadqiqotlar markazi va madaniy diplomatiya vositasi sifatida mamlakatning umumiy imiji va nufuziga salmoqli hissa qo‘shishda davom etadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi" to‘g‘risidagi qarori.
2. UNESCO. (2021). The Future of Museums: Recover and Reimagine. Paris: UNESCO Publishing.

3. Mamadjanov, SH. (2020). "Muzey faoliyatini tashkil etish va boshqarishda innovatsion yondashuvlar." O'zbekiston madaniy merosi jurnali, №4, 45–52-betlar.
4. Hooper-Greenhill, E. (1994). Museums and Their Visitors. London: Routledge.
5. Mirzayev, B. (2022). "O'zbekiston muzeylarida raqamli transformatsiya: muammolar va imkoniyatlar." Madaniyat va Ta'lif ilmiy jurnali, №2, 66–74-betlar.
6. McLean, F. (1997). Marketing the Museum. London: Routledge.
7. Yunusova, M. (2021). "O'zbekiston muzeylarida auditoriya bilan ishlashning zamonaviy usullari." Ijtimoiy fanlar jurnali, №1, 80–88-betlar.